



MAMALAKATIMIZ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINING AHAMIYATI

Jo'rayeva Gulnoza Komiljon qizi

TDIU, Kechki ta'lim va magistratura fakulteti magistranti

Email: gulnozajorayeva27@gmail.com

Annotatsiya: Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari va yirik korxonalarda davlat ulushining uzoq vaqt saqlanishi bozor mexanizmlariga o'tishning kechikishiga, mehnat unumdorligini oshirish, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, xususiy kapitalni faol jalb qilgan holda yangi ish o'rinlari yaratishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish orqali korporativ boshqaruvni samarali joriy qilinishi va shu orqali iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, davlat ishtirokidagi yirik korxona, xususiy kapital, korporativ boshqaruv, bozor mexanizmi.

Аннотация: Подчеркнута необходимость проведения комплексных реформ для ускорения трансформации госкомпаний в условиях реализации структурных изменений в экономике. Известно, что длительное сохранение доли государства в соответствующих отраслях экономики и крупных предприятиях приводит к задержке



перехода к рыночным механизмам, повышению производительности труда, производству новых видов конкурентоспособной продукции и внедрению передовых технологий. технологий в области, новые работы с активным привлечением частного капитала отрицательно влияют на создание ринов.

Целью данной статьи является разработка предложений и рекомендаций по эффективному внедрению корпоративного управления посредством трансформации крупных государственных предприятий и тем самым устойчивого развития нашей экономики.

Ключевые слова. Трансформация, крупное государственное предприятие, частный капитал, корпоративное управление, рыночный механизм.

Kirish. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida korporativ boshqaruv sohasida jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad mulkiy xilma-xillik asosida iqtisodiy faoliyatni yanada jadallashtirish, mulklarni davlat tasarrufidan chiqarib, nodavlat sektorga o'tkazish va shu orqali turli o'z-o'zini boshqaruvchi xususiy iqtisodiy xo'jalik birliklarini vujudga keltirish ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat tasarrufidan chiqarilgan mulklarni samarali tarzda qayta harakatga keltirish, qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, ayniqsa, kichik hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bog'liqdir. Shu asosda davlat tasarrufidagi aksariyat korxona va tashkilotlarni aksionerlik jamiyatlariga aylantirish orqali iqtisodiyotning korporativ boshqariluvchi bo'g'inlarini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda

Davlatimiz rahbarining Murojaatnomasida hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarning aksariyati moliyaviy barqaror bo'lmagani uchun davlatga og'ir yuk bo'lib qolayotganligi, shu sababli joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi



amalga oshirilayotganligi qayd etildi. Jumladan, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va bu orqali xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 3 mingga yaqin davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati to'liq o'rganildi va iqtisodiyotda davlat ishtirokidagi korxonalarning ulushini keskin qisqartirish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6096-son Farmoni [1] bilan 32 ta transformatsiya qilinadigan yirik davlat korxonalari va xo'jalik birlashmalari ro'yxati tasdiqlandi. Shuningdek, bevosita davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi Moliya vazirligi tuzilmasida Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish departamenti tashkil etildi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish strategiyasi va samarali boshqarish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi muhimdir[2]. Davlatimiz rahbari majlisida ana shu haqda to'xtalib, korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirishimiz uning haqiqiy bozor munosabatlariga mos kelishini ta'minlash hamda konservativ qarashlardan voz kechishda katta hissa bo'lganligini, lekin butun dunyoda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va ishni korporativ tarzda boshqarish asosiy usul, deb topilgan bir paytda bizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarli emasligiga, hali oldinda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ham talaygina ekanligiga alohida urg'u berdi. Korporativ usul bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim sharti ekanligi, bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish hayotiy zaruratligi, ayniqsa, sohaga puxta bilimga ega bo'lgan zamonaviy menejment hamda marketing usullarini amalda qo'llay oladigan yosh mutaxassislarni jalb etish masalalari dolzarb ekanligi aytib o'tildi.



Adabiyotlar tahlili. Korporativ boshqaruv bo'yicha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim A.Berlining tadqiqotlarida korporatsiyalarni boshqarishda strategiyani tanlash va korxona menejmentini rivojlantirish, investitsion faoliyatni boshqarish masalalari tadqiq etilgan [3]. M.Xesselning tadqiqotlarida «Korporativ boshqaruv – bu mulkdorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning korxona faoliyatini baholash va nazorat qilish bilan bog'liq o'zaro munosabatlari hisoblanadi». [4] Korporativ boshqaruv kodeksining muallifi (1992) Ser Edrian Kadberning korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan dokladiga asosan korporativ boshqaruv (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, Corporate Governance) – bu kompaniya faoliyatini boshqarish va nazorat qilishni amalga oshirishni ta'minlovchi tizimidir [5].

O'zbekiston Respublikasida ham bir qator olimlar Sh.Zaynutdinov[6], D.Suyunov[7], B.Berkinov[8], M.Xamidulin[9], N.Rasulov[10] lar tomonidan korporativ boshqaruv tizimining ayrim jihatlari nazariy metodologik asoslari tadqiq qilingan. Xususan, M.B. Xamidulinning korporativ boshqaruv bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida, Korporativ boshqaruv – bu korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirni ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir». [9]

Yana bir iqtisodchi olimlarimizdan D.X. Suyunovning fikricha “Korporativ boshqaruv – bu korporativ mulk shakliga kiruvchi sub'ektlar mulkdorlarining huquqlarini va manfaatlarini himoya qiluvchi amaldagi meyorlar, hamda boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida kompaniyaning maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir” [7].

Turli xorijiy va mahalliy olimlar transformasiya jarayonlarining uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Jumladan, G'.Ibragimov[11] oziq-ovqat sanoati korxonalarida



qo'llaniladigan transformatsiya jarayonini texnologik transformatsiya, xo'jalik munosabatlari tizimi transformatsiyasi, mulkiy munosabatlar tizimi transformatsiyasi, raqamli transformatsiya, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlar transformatsiyasi, kadrlar tayyorlash tizimining transformatsiyasi turlariga bo'lib chiqqan bo'lib, transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda ushbu transformatsiyalash turlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlab o'tgan. Rossiyalik olim L.Steblyakova[12] o'zining tadqiqot ishida transformatsiya jarayonlarining evolyutsion (tinch yo'l bilan), reformatcion (modernizatsiya qilish orqali) va revolyutsion (inqilobiy) turlarini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, Evolyutsion transformatsiya – bu o'z-o'zini rivojlantirishning uzluksiz jarayoni bo'lib, uning manbai tizimning o'zida bo'lib, butun tizimni o'z ichiga bosqichma-bosqich qamrab oladi. Ob'ektiv ravishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni iqtisodiy kuchlar harakati orqali hal qilish asosida tizim yaxlitligini o'rnatadi; bu asta-sekin amalga oshadigan silliq jarayon bo'lib, turli o'tkir sakrashlar yoki ikkilanishlar bilan bog'liq emas. Islohotlar orqali (evolyusion) transformasiyalash jarayonlari - bu xukumat tomonidan amalga oshirilgan islohot (modernizatsiya) transformasiyasi bo'lib, bunda olib boriladigan islohotlar xukumat tomonidan olib boriladigan tashabbusi bilan tizim parametrlarining salmoqli qismini uning qolgan asosiy xossalari doirasida o'zgartirishni nazarda tutadi. Islohot davrida iqtisodiy tizimlarda eski tizimning asoslarini o'zgartirmagan holda uning samaradorligini oshirish maqsadida faqat alohida elementlar tuzatiladi. Shuning uchun transformatsiyalash jarayonlarining yashirin bosqichi sifatida ko'rish mumkin. Turli darajadagi chuqurlikka ega bo'lgan islohotlar keyinchalik yuqori sifatga erishish uchun sharoit yaratadi, tizimning degenerasiyasi, shuning uchun evolyusion jarayonlar mantig'iga sezilarli darajada mos keladigan reformasiya transformasiyasi haqida gapirish mantiqan ularni tezlashtiradi. Inqilobiy (Revolyutsion) transformatsiya eski tizimni "olib tashlash" va tezlashtirilgan, inqilobiy rejimda yangisini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Inqilobiy o'zgarishlar avvalgi iqtisodiy



va ijtimoiy tuzilmalarni yo‘q qilish bilan bog‘liq siyosiy va hukumat kuchlarining faol ishtirokida yangilarini yaratish taqozo etadi.

Yana bir Rossiyalik olim N. Bagresovning [13] fikriga ko‘ra, transformatsiya tizimning asosiy tarkibiy qismlariga, ya'ni tuzilma, tashkiliy shakl, xarajatlar, xodimlar soni va sifati, aktivlarning texnik darajasi va boshqalarga muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi jarayonlar, aktivlar va funksiyalarni sotib olishni yoki eskisini almashtirishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-texnik tizimlarning transformasiya jarayoniga ikki turdagi jarayonlarni kiritish mumkin: firma ichidagi konsolidatsiya va firmalararo integratsiya. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayonlarini amalga oshirish rivojlanishning muayyan institutlari va prinsiplari sharoitida amalga oshiriladi. Tashqi va ichki muhit ta'siri ostida "Korxona" tizimini transformatsiya qilishning chuqur innovatsion jarayoni sodir bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy ish bo'yicha izlanishlar olib borish jarayonida turli usullardan foydalanilgan. Ma'lumot yig'ish, saralashda ayirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida olingan natijalar induksiya usuli orqali yakuniy xulosa sifatida chiqarildi. Moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni taqqoslash va tadqiqot natijalarini olish uchun statistika keng qo'llanildi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar olib borishda tahlil qilish usuli orqali korporativ boshqaruv va tashkiliy xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabatlar o'rganildi Muhokamani umumlashtirishni hisoblash uchun sintez usuli ishlatilgan.

Tahlil va natijalar. O'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xususiylashtirish orqali mamlakatimiz o'zini o'zi moliyalashtirish va davlatni ta'sirini kamaytirib, tadbirkorlarga erkinlik berib iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi maqsad qilingan. Misol tariqasida, "O'ztransgaz" AJini keltirib o'tamiz. Bizga ma'lumki, ushbu yirik aksiyadorlik jamiyatida davlat ulushi juda yuqori,



ammo hozirda xususiylashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Quyidagi jadvalda “O’ztransgaz” AJning 3 yillik moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlari berilgan:

“O’ztransgaz” AJning 3 yillik moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlari [14] 1-jadval

Ko’rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Mahsulot sotishdan sof tushum	12 322 703 626,00	9 701 888 825,00	7 874 616 608,00
Xususiy kapital	-8 124 784 645,00	-1 396 844 976,00	3 572 995 754,00
Hisobot davri sof foydasi (zarar)	-2 475 025 043,00	6 468 486 813,00	3 500 341 496,00
Dividend shaklidagi daromad	1053,00	19845,00	7634,00

Har bir ma’lumot orqali biz korxonaning qay darajada samarali ishlaganini bilib olishimiz mumkin. Birinchi ko’rsatkich mahsulot sotishdan sof tushum yillar kesimida kamayib borgan. 2022-yilda 12 322 703 626,00ni tashkil etgan bo’lsa, 2024-yilda bu ko’rsatkich 4 448 087 018 so’mga kamaygan.

Xususiy kapital esa 2022-2023 yillarda salbiy ko’rsatkichlarda bo’lgan bo’lsa 2024-yilga kelib, 3 572 995 754 so’mni tashkil etgan. Bundan shu ma’lumki, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlari unchalik ijobiy natija ko’rsatmagan. Korxona 2022-yilda zarar bilan chiqqan bo’lsa, 2023-yilda 6 468 486 813 so’m sof foydaga erishdi. Lekin, 2024-yilda sof foyda qariyb 2 baravar kamaydi.

“O’ztransgaz” AJ aksiyadorlik kapitali tarkibi va ulushlari to’g’risida ma’lumot

(01.04.2024 yil holatiga) [15]


2-jadval

№	Aksiyadorlar	Aksiya soni	Ulushi
1	O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	329 807 303	51,7
2	“O’zbekneftgaz” AJ	292 785 159	46,78



3	O'z.Res.Prez.Admin-si huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi	509	0,000081
4	Yuridik shaxslar: 11 nafar	18 277	0,02
5	Jismoniy shaxslar: 16 659 nafar	3 165 824	0,5
	Jami:	625 777 072	100,0

Yuqoridagi jadvalda AJning aksiyadorlik kapitali tarkibi haqida ma'lumot berilgan. Unga ko'ra korxonaning 50 foizdan ko'p qismi davlatga tegishli. 0,5 foizi jismoniy shaxslarning qo'lidaligi ma'lum. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonaning yirik ulushi davlat tasarrufida AJning aksiyalari ham savdoga chiqarilmagan. 46,78 foiz ulushi O'zbekneftgaz AJga tegishli, yuridik shaxslar ulushi 0,02 foizni tashkil etad



1-rasm. Korxonalarni transformatsiyalash jarayoni bosqichlari

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



1. Mavjud vaziyatni tahlil qilish. Ushbu bosqichda korxonaning hozirgi holatini tahlil qilish, ya'ni bunda korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarining darajasini, belgilangan rejaning bajarilishini, kadrlarning ilmiy va intellektual salohiyatini, tashkilotga kommunal manbalarning etkazib berishligini, to'lov likvidligini qobiliyatini, ishchilarning qo'nimsizligi darajasini, xom ashyo materiallarning bir maromda etkazib berilishi tahlil qilish, uning potensial imkoniyatlarini ya'ni, mahsulot ishlab chiqarishdagi quvvat manbalarining darajasi, ishlab chiqarishning eng yuqori cho'qqisiga olib chiqish darajasi, shuningdek ishlab chiqarishning eng quyi darajasi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasini chuqur o'rganish orqali mavjud bo'lgan muammolarini aniqlash orqali ularning echimlari ichidan eng optimal variantini ishlab chiqish va jadallik bilan amaliyotga tatbiq qilish.
2. Transformasiyalash strategiyani ishlab chiqish. Ushbu bosqichda transformasiyalashning maqsadlari, ya'ni korxonada ishlab chiqarish jarayonini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning diversifikatsiyasini amalga oshirish, muqobil elektr energiya manbalaridan foydalanish, etuk mutaxassis kadrlarni yuqori mehnatga haq to'lash shakli bilan jalb qilish, doimiy va o'zgarmas maxalliy va xorijiy investorlar bilan iqtisodiy va moliyaviy biznes xamkorlikni qat'iy yo'lga qo'yish yo'nalishlarini belgilash, shuningdek qo'llaniladigan usul va vositalarni belgilaydigan o'zgarishlarni amalga oshirishda rivojlangan uzoq va yaqin xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanish ular ushbu jarayonga o'tish yo'lida amalga oshirgan iqtisodiy yo'llaridan kelib chiqqan xolda tatbiq etish va jadallashtirish strategiyasi ishlab chiqiladi.
3. Transformasiyalash jarayonlarining boshlanishi. Ushbu bosqichda korxonaning tuzilishi, madaniyati, jarayonlari va texnologiyalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan o'zgarishlardan iborat.
4. Transformasiyalashni amalga oshirish. Ushbu bosqichda oldingi bosqichlarda rejalashtirilgan jarayonlar to'liq amalga oshiriladi.



5. Monitoring va baholash. Ushbu bosqichda korxonada amalga oshirilgan transformasiyalash natijalarini monitoring qilish va baholash amalga oshiriladi.
6. Transformasiyalash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash. Ushbu bosqichda korxonada amalga oshirilgan transformasiyalash jarayonlarini yangi o'zgaruvchan tashqi muhitda yanada samarali ishlashni davom ettirilishi ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish orqali iqtisodiy o'sishni yanada rag'batlantirish mumkin. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda, har bir bo'lim bo'yicha alohida-alohida transformatsiya jarayonlarini tatbiq etish o'zining ijobiy samarasini beradi. Transformatsiya jarayonlarini olib borish bo'yicha ishlab chiqilgan bosqichlarni amalda qo'llash yanada samaradorlikka erishishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyida AJlarda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun eng birinchi qilinishi lozim bo'lgan tadbirlarni taklif etamiz:

1. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha aniq strategiyani ishlab chiqish va uni jadallik bilan amalga oshirish bo'yicha zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlash.
2. Korxona mutaxassis kadrlarini salohiyatini oshirish va aktiv ishtirok etgan kadrlarni rag'batlantirib borish.
3. Transformatsiyalash jarayonini korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sirini monitoring qilish yuzasidan ishchi guruh tuzish.

Umuman olganda, transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishni jadallashtirish ishlab chiqaruvchilar orasidagi kuchli raqobatga tayyorlanishda muhim omil bo'ladi. Shuningdek davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiyalash va bu orqali samarali korporativ boshqaruvni joriy etish jarayonlari iqtisodiyotning boshqa sektorlarini ham o'sishiga imkon beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-6096-son), Toshkent, 2020 yil 27 oktyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
3. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. Commerce Clearing House, Chicago, IL, 1992- pp. 68-87
4. M. Xessel. Korporativnoe upravlenie M.: INFRA-M.1996 g.
5. Adrian Cadbury., Korporativ boshqaruv kodeksi 1992 yil.
6. Zaynutdinov Sh.N. Globalization: Realities and Prospects/ The Current. Global Trends.Vol 3, No 1 (2015) - P. 1-5.
7. Suyunov D. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2007. – 319b
8. Berkinov B. Korporativnie strukturi (Osnovi sozdaniyai upravleniya). – T.: Izd-vo Nats.b-ki Uzbekistana, 2005. – 132s.
9. Xamidulin M.B. Finansovie mexanizmi korporativnogo upravleniya. Monografiya. – T.: Moliya, 2008. –204s.
10. Rasulov N. Korporativ boshqaruv amaliyoti: milliy va xalqaro tajriba//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali.№2, mart-aprel. 2015.
11. Ibragimov G‘. Oziq-ovqat sanoatini transformasiyalash asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent 2022
12. Steblyakova L.P. Transformasiya ekonomicheskix sistem: teoriya i praktika. Avtoreferat dissertatsii na soiskanii uch. step. d.e.n. – Moskva, 2010. – 54 s.
13. Bagresov N.D. Transformasiya, evolyusiya i razvitie sistemi “predpriyatie”. Agrarniy vestnik urala. – 2011. - №6 (85). – S. 57-59.
14. <https://www.utg.uz/uz/>
15. <https://www.utg.uz/uz/>